

YETUKLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**ADPI Maktabgacha ta’lim
105-guruh talabasi Oqbutayeva Mubina**

**“Shaxsning yetukligi motivatsiyasining funksional avtonomligi bilan belgilanadi”
Gordon Olport**

Annatsiya: ushbu maqolada yetuklik- hayot faoliyatining eng ijtimoiy davriligi, u kattalikning shunday davriki unda shaxs va intellekt rivojlanishining eng yuksak darajasida, yetuklik davri ancha murakkab davrdir, mazkur davrda shaxs ham jismoniy, ijtimoiy jihatdan yetuklikka yetgan, jamiyat fuqarosi sifatidagi huquqini qo’lga kiritib bo’lgan shaxs sifatidagi fikrlar keltirilgan

Kalit so’zlar ; Maqolada yetuklik davri, yetuklik davrining bosqichlari, yetuklik xaqida tadqiqot olib borgan psixologlar, o’zlikni anglash, yetuklik davri qonuniyatlari, yetuklik davri odam kuch-quvvati, qobiliyati.

Inson individ sifatida dunyoga kelib yillar mobaynida o’zini shakllantirib rivojlantirib, o’zgartirib boradi. Bu jarayonda bevosita tashqi muhit omillari ham o’z o’rnida kishini muayyan bir shaxsga ayllantiradi. Individ sifatida dunyoga kelib o’zini rivojlantirib o’z shaxsining buyuk cho’qqisiga olib chiqa olgan odam yetuk inson bo’la oladi. Aksincha o’z – o’zini ustida ishlamagan , o’zini rivojlantirishga harakat qilmagan odam o’z shaxsini mukammal shaklda yarata olmaydi. Inson tug’ulganidan boshlab muayyan faoliyat bilan shug’ullanib keladi. Bog’chaga, maktabga boradi. Oliy o’quv yurtida o’qib o’z bilimlarini oshiradi. Muayyan ishga joylashib u yerda faoliyat yuritadi, jamiyatga foydasi tegadigon inson sifatida shakillanadi. Yetuklik davri aynan shu davrda boshlanadi.

Yetuklik- hayot faoliyatining eng ijtimoiy davridir, u kattalikning shunday davriki unda shaxs va intellekt rivojlanishining eng yuksak darajasida erishiladi. Qadimgi greklar bu yoshni va ruh holatini AKME deb atashgan, AKME so’zi cho’qqi oliy bosqich gullagan davr degan ma’nolarni anglatadi.

Psixologik bosqich sifatida yetuklik ontognezdagi nisbatan uzoq davom etadigon davrlardan biridir. Yetuklikning 3 bosqichi ajratiladi;

- ilk yetuklik (yoshlik)
- o’rta yetuklik
- yetuklik (qarilik va keksayish)

Yetuklik davri ancha murakkab davrdir, mazkur davrda shaxs ham jismoniy, ijtimoiy jihatdan yetuklikka yetgan, jamiyat fuqarosi hamda saylash huquqini qo’lga kiritib bo’lgan bo’ladi. Bularning barchasi ijtimoiy jihatdan voyaga yetish, turmushda o’z o’rnini topish, o’z taqdirini o’zi hal qilishi, yetuk shaxs sifatida ruhiyati va ma’naviyatining rivoji uchun jamiki shart-sharoitlar yaratadi. Shaxs ijtimoiy hayotda oliy o’quv yurti jamoasida, tengqurlari bilan shaxslararo munosabatlar davrasidagi, o’qish va turmush sharoitidagi o’zgarishlar ta’siri ostida tarkib topa boshlaydi. Shaxsning mehnat faoliyatida ta’lim tarbiya jarayonida aqliy vva axloqiy jihatdan o’sishida o’ziga xos o’zgarishlar, yangi xislat va fazilatlar namoyon bo’layotganligi ko’rsatiladi.

Yetuklik davrining kamol topishining birinchi bosqichiga 28-35 yoshlardagi rkak va ayollar kiradilar. Yetuklik davrida odam o’zining barcha kuch-quvvatini, qobbliyatini, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o’z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga to’la safarbar qila oladi. Erkak va ayollarning ba davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatda muayyan tajribaga egaligi istiqbol sari yetaklaydi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida qarulik alomatlari ko‘proq o‘riin egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 40-45 yoshlardir , lekin odamlarning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra chegara turlicha masalan, bu bir kishida 60 yoshda bosha birida esa 70 yoshda bo‘lishi mumkin. Shu sababli yosh davrining chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitiga, jug‘rofiy iqlim va hokazolarga ham bog‘liqdir.

Yetuklik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklikning jadal sur‘at bilan ro‘yobga chiqarishdir. Ma’lumki ijtimoiy yetuklik shaxsdan zarur aqliy qobiliyatini hamda ijtimoiy tuzishda bajariladigon turli rollarni egallash, farzandlarni tarbiyalashga, foydali mehnatga qatnashishga tayyorlanishini talab qiladi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va ko‘rsatkichlari o‘rta ma’lumotlilik ko‘rsatish qonunlar oldida javongarlik, mutaxassis bo‘lish imkoniyati, unga intilish tuyg‘usi, irodaviy zo‘r berish, yosh otalik va onalik burchi, jamoat arbobi vazifasini o‘tash, ijtimoiy guruhga rahbarlik qilish, sport bilan shug‘ullanish, bo‘sh vaqtni tashkil eta olish, to‘garakda qatnashish va hokazolardan iboratdir.

Psixologlardan M. G. Davletshin, A.V.Dimitrieva, B.G.Ananyev, N.V.Kuznina, N.F.Talizina, V.Y.Lyandus, L.S.Kon, O.T.Lisovskiy, A.A.Badalov, A.V.Petrovskiy, I.I.Ilyasov, Z.F.Esarova, E.G.G‘oziyev va boshqalarning tadqiqotlariga ko‘ra yetuklik davrining boshlang‘ich qismi insonlar uchun og‘ir kechadi, chunki bu davrda shaxsning murakkab fazilatlarini xislatlari sifatlarini takomillashish bosqichida bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Z.T. Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova ‘‘Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya’’ TOSHKENT-2018
2. F.I. Xaydarov N.I.Xalilova ‘‘Umumiy psixologiya’’ Toshkent-2009